

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH

Axmedova Nodira Aminjanovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada masofaviy ta’limda “case study” metodi yordamida dars o‘tishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan. Maqolada bu metodning afzalliklari, qo‘llanilishi, darslarni rejalashtirish, o‘tkazish va baholash jarayonlari batafsil yoritilgan. Talabalar real hayotdagi muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ushbu metoddan foydalanishning amaliy jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Masofaviy ta’lim, case study metodi, dars rejalashtirish, talabalar, muammolarni hal qilish, interaktiv ta’lim, onlayn o‘qitish.

**Kirish.** “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish zarurligi ko‘p marta takrorlangan [1]. Bugungi kunda Respublikamizning pyedagogika sohasidagi olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O‘zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta’lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llashga intilmoqdalar. Yangi pedagogik-texnologiyalar kun sayin rivojlanib borayotgan paytda yangidan-yangi zamonaviy pedagogik-texnologiyalardan biri Keys-stadi metodi xaqida tushunchalar berib o‘tamiz. Keys-stadi inglizcha case - aniq vaziyat, stadi – ta’lim so‘zlarining birikuvidan hosil qilingan bo‘lib, aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir [2]. Mazkur metod muammoli ta’lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o‘rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o‘quv jarayonida ma’lum bir maqsadga erishish yo‘li sifatida qo‘llanilsa, metod xarakteriga ega bo‘ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma’lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o‘zida aks ettiradi [3-4].

Masofaviy ta’limning rivojlanishi bilan dars berishning yangi metodlarini qo‘llash zaruriyati ortib bormoqda [5-7]. Ulardan biri “case study” metodidir. Bu usul talabalarni real hayotdagi vaziyatlarga jalb etish orqali ularga amaliy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu maqolada “case study” metodini masofaviy ta’lim shakliga dars berish jarayoniga tadbiiq qilish haqida batafsil so‘z yuritilgan. “Case Study” metodi asosida dars o‘tish, darsni rejalashtirish jarayonida quyidagilarni hisobga olish kerak:

- maqsadni aniqlash: Talabalar qaysi ko‘nikma va bilimlarni egallashlari kerakligini belgilab olish.
- Case study tanlash: Dolzarb va qiziqarli real vaziyatni tanlash, bu talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.
- Case study hujjatini yaratish: voqea, ishtirokchilar, muammo va mavjud ma’lumotlarni batafsil bayon qilish.
- qo‘llab-quvvatlovchi materiallar: Diagramma, grafik va videolar yordamida vaziyatni to‘liq ochib berish.
- masofaviy ta’lim platformasi: Zoom, Microsoft Teams yoki Google Meet kabi qulay platformani tanlash.
- hamkorlik vositalari: Google Docs, Padlet yoki Miro kabi vositalardan foydalanish talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlaydi.

Talabalarni case study bilan tanishtirish va maqsadlarni tushuntiriladi, guruhlariga ajratilib, talabalarni kichik guruhlariga bo‘lib, mustaqil tahlil qilish imkoniyatini yaratiladi. Muammoni tahlil qilishda guruhlar uchun muammoni tahlil qilish va yechimlar taklif qilish uchun vaqt

ajratish. Keyin natijalarni taqdim etish va muhokama qilish uchun guruh taqdimotlari tinglanadi. Har bir guruh o'z yechimlarini taqdim etishi va savol-javob sessiyalari o'tkazishi kerak. Umumiy muhokama vaqtida talabalar o'rtasida fikr almashish va o'zaro tahlil qilish jarayonini tashkil etish muhim hisoblanadi. Barcha tayyor ishlarni baholash mezonlari asosida ko'rib chiqiladi [8].

Hozirgi kunda esa, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan mazkur metod tarafdorlari ko'payib bormoqda. XX asrning 50- yillaridan boshlab biznes-keyslar G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ommalashdi. Yevropaning yetakchi biznes maktablari INSEAD, LBS, HEC, LSE, ESADE va boshqalar keys-stadi metodi asosida dars beribgina qolmay, keyslarni yaratishda ham faol ishtirok eta boshlaydilar. Keys – bu yaxlit axborotlar majmui. Qoidaga ko'ra, keys uch qismdan iborat bo'ladi: 1) keysni tahlil etish uchun zarur yordamchi axborotlar; 2) aniq vaziyat bayoni; 3) keys topshirig'i. Professor-o'qituvchi rahbarligida auditoriyada hamkorlikda keys-topshirig'ini muhokama qila olish demakdir. Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi. Bunday yondashishning mohiyati, ta'lim jarayonini tizimlashtirishdan uni, aniq rasmiylashtirilgan va detallari bo'yicha aniq elementlarga bo'lib tashlash yordamida maksimal shakllantirishdir [9].

**Xulosa.** “Case study” metodi masofaviy ta'lim shaklida talabalar uchun interaktiv va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi samarali usul hisoblanadi. Bu metod orqali talabalar real vaziyatlarda qanday qarorlar qabul qilishni o'rganadilar va o'zlarining kasbiy tayyorgarliklarini oshiradilar. Maqolada ko'rsatilgan qadamlar va tavsiyalar orqali masofaviy darslarni yanada samarali o'tkazish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aloqa axborotlashtirish sohasi uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirish muammolari. Ma'ruzalar to'plami 1-tom. Toshkent 2014y.
2. <http://www.ziyonet.uz>
3. E.Z. Imamov X.N.Karimov, C.C.Xalilov, A.E.Imamov // Будущее за обучением с активным процессом самообразования студентов // “Science and innovation” international scientific journal. (ISSN: 2181-3337) 2022. № 5. -S. 479-482. (URL: // cyberleninka.ru/article/n/budushee-za-obucheniem-s-aktivnym-protssomsamoobrazovaniya-studentov/viewer)
4. X.Sh.Asadova, Yu.N.Karimov // Yangi zamonoviy texnologiyalar asosida o'quv jarayonini samarali tashkil etish // “Science and innovation” international scientific journal. Volume 1 Issue 7. 2022. -S. 230-233. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zamonoviytexnologiyalar-asosida-uv-zharayonini-samarali-tashkil-etish/viewer>
5. E.Z. Imamov X.N.Karimov, C.C.Xalilov, A.E.Imamov // Yangi O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bilan bog'liq muammolar //«Science and innovation» international scientific journal. (ISSN: 2181-3337) 2022. № 3. -S. 367-372. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekistonda-ayta-tiklanuvchi-energiya-manbalarinizhoriy-etish-bilan-bo-li-muammolar/viewer>
6. Kh.N.Karimov. // Methods of self-education in teaching students physics using information and computer technologies. // “Galaxy international Interdisciplinary Research Journal”, 11(2), -S. 471–475.
7. Бахронов Х., Султонов А., Асфандиёров М. // Дифференциальные теплоты адсорбции аммиака на силикалите с катионами Na<sup>+</sup> и Li<sup>+</sup>//Conferencea. – 2023. – С. 108-110.
8. Бахронов Х., Султонов А., Асфандиёров М. // Энтропия адсорбции аммиака на силикалите с катионами Na<sup>+</sup> и Li<sup>+</sup> //E Global Congress. – 2023. – №. 6. – С. 51-53.